KARL POPPER DEBAT MODELI ASOSIDA TRANSFORMATIV O‘QISH ORQALI O‘QUVCHILARNING KOGNITIV-ANALITIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH (PREZIDENT MAKTABLARI TAJRIBASI ASOSIDA)

Xamdamova Shoxista Yusup qizi,
Termiz shahri Prezident maktabi, Ingliz tili fani o‘qituvchisi
sh.khamdamova@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.17746665

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Prezident maktablarida ingliz tili fanini o‘qitish jarayonida transformativ o‘qish yondashuvi hamda Karl Popper debat modeli orqali o‘quvchilarning kognitiv-analitik fikrlashini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda Bloom taksonomiyasi, ochiq savollar (open-ended questioning) va real hayotiy STEM integratsiyasi asosida o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlash metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Karl Popper debat modeli o‘quvchilarning argument yaratish, dalillarni himoya qilish, muloqot va bahs madaniyatini shakllantirishdagi samaradorligini namoyon etadi. Tadqiqot Termiz shahridagi Prezident maktabida olib borilgan piloting tajribasiga tayangan holda o‘tkazilgan bo‘lib, natijalarda transformativ o‘qish va debat metodlarining o‘quvchilarda yuqori darajadagi tahliliy tafakkurni shakllantirishdagi ijobiy ta’siri asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *transformativ o‘qish, Karl Popper debat modeli, kognitiv-analitik fikrlash, Prezident maktablari, tanqidiy fikrlash, Bloom taksonomiyasi, ochiq savollar, STEM integratsiyasi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы развития когнитивно-аналитического мышления учащихся Президентских школ в процессе преподавания английского языка с использованием трансформативного чтения и дебатной модели Карла Поппера. В исследовании анализируются методы стимулирования самостоятельного, критического и творческого мышления обучающихся на основе таксономии Блума, открытых вопросов и интеграции STEM. Отдельное внимание уделено эффективности дебатной модели Карла Поппера в формировании аргументативных и коммуникативных навыков учеников. Эксперимент, проведённый в Президентской школе города Термеза, показал положительное влияние трансформативного чтения и дебатов на развитие аналитического мышления учащихся.*

Ключевые слова: *трансформативное чтение, модель дебатов Карла Поппера, когнитивно-аналитическое мышление, Президентские школы, критическое мышление, таксономия Блума, открытые вопросы, STEM интеграция.*

Развитие когнитивно-аналитического мышления учащихся через трансформативное чтение на основе дебатной модели карла поппера (на примере Президентских школ)

Хамдамова Шохиста Юсуп кизи,
Президентская школа города Термез,
учитель английского языка

Developing students’ cognitive-analytical thinking through transformative reading based on the karl popper debate model (The Case of Presidential Schools)

Xamdamova Shoxista Yusup qizi
Teacher of English Language,
Presidential School in Termez

Abstract: *This article explores the development of students' cognitive-analytical thinking in English language classrooms at Presidential Schools through the use of transformative reading and the Karl Popper debate model. The study analyzes pedagogical strategies aimed at fostering independent, critical, and creative thinking skills drawing on Bloom's Taxonomy, open-ended questioning, and real-life STEM integration. The Karl Popper debate framework is highlighted as an effective tool for enhancing students' ability to construct arguments, defend their ideas, and engage in structured discussions. The research is based on a pilot study conducted at the Presidential School in Termiz, demonstrating that the combination of transformative reading and debate-based learning significantly contributes to higher levels of analytical and reflective thinking among learners.*

Keywords: *transformative reading, Karl Popper debate model, cognitive-analytical thinking, Presidential Schools, critical thinking, Bloom's Taxonomy, open-ended questions, STEM integration.*

Prezident maktablari modeli va global kompetensiyalarni rivojlantirishda transformativ o'qishning o'rni

O'zbekiston Respublikasida "Prezident maktablarining tashkil etilishi ta'lim tizimini transformatsiya qilish va xalqaro standartlarga mos yuqori salohiyatli yetakchi avlodni tayyorlashga qaratilgan strategik tashabbusdir"[1]. Prezident maktablari konsepsiyasi o'quvchilarni nafaqat akademik jihatdan, balki shaxsiy, ijtimoiy va global kompetensiyalar bo'yicha ham rivojlantirishni maqsad qiladi. Ushbu maktablar ta'lim jarayonining markaziga innovatsion metodologiyalar, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, raqamli savodxonlik va global fuqarolik qiyofasini joylashtiradi.

Globalizatsiya sharoitida o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, turli madaniyatlar va g'oyalar bilan muloqot qila oladigan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash zamon talabi sanaladi. XXI asr kompetensiyalariga ega bo'lgan yoshlar moslashuvchan, tahliliy fikrlaydigan, ijtimoiy masalalarga befarq bo'lmagan va hamkorlikda muammolarni hal qila oladigan shaxslardir. Prezident maktablarida ta'lim jarayoni aynan shu yo'nalishlarda olib borilishi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, mazkur maktablarda transformativ ta'lim yondashuvi markaziy o'rin tutadi. Mazkur yondashuv o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi sifatida shakllantiradi. Transformativ o'qish jarayonida o'quvchi real hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladi, mavjud qarashlarni qayta ko'rib chiqadi va shaxsiy pozitsiyasini asoslaydi. Bu jarayon Prezident maktablarida munozara, loyiha ishlari, STEM integratsiyasi, tadqiqot asosida o'qitish kabi metodlar orqali ta'minlanadi.

"O'zbekistonda Prezident maktablari Cambridge Assessment tizimi va xalqaro baholash standartlarini qo'llashi bilan ham e'tiborga loyiqdir"[2]. Bu yondashuv o'quvchilarga o'z fikrini dalillar bilan asoslash, mustaqil tadqiqot o'tkazish va loyihalar orqali bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Shu orqali o'quvchilarda quyidagi global kompetensiyalar shakllanadi:

- Tanqidiy va analitik fikrlash;
- Muammoni yechish va qaror qabul qilish;
- Ijodiy fikrlash;
- Jamoada ishlash va yetakchilik.

Ushbu maqolada o'rganilayotgan transformativ o'qish yondashuvi aynan mazkur kompetensiyalarni chuqurlashtirishda samarali metod sifatida namoyon bo'ldi. 8-9-sinflarda amalga oshirilgan pilot tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bahs-munozara, ochiq savollar, hamkorlikda tahlil, matn asosida dalillash va hayotiy vaziyatlar integratsiyasi o'quvchilarning kognitiv faoliyatini sezilarli darajada kuchaytirgan, o'z fikrini mustaqil himoya qilishga o'rgatgan

hamda mantiqiy xulosalar chiqarishga yordam bergan.

Shunday qilib, Prezident maktablari modeli va transformativ ta’lim yondashuvi uyg‘unligi o‘quvchilarni global fikrlaydigan, intellektual salohiyatli va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot Termiz shahridagi Prezident maktabida 2024-2025-o‘quv yilining birinchi choragida 8-9-sinf o‘quvchilari ishtirokida amalga oshirildi. Tajribada jami 48 nafar o‘quvchi qatnashdi. O‘quv jarayoni transformativ o‘qish konsepsiyasi, Bloom taksonomiyasi va critical thinking yondashuvlari integratsiyasiga asoslandi. Tadqiqotda sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tahlil usullari qo‘llanildi. Darslar davomida matnni chuqur o‘qish (deep reading), tahliliy savollar, bahs-munozara, argument qurish, ochiq savollar (open-ended questioning) va real hayotga moslashtirilgan topshiriqlar (STEM integration) yondashuvlari bilan bir qatorda, Karl Popper debate formati muhim ahamiyat kasb etdi.

“Transformativ o‘qish M.Mezirow (1991) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlari va fikrlash jarayonining chuqurlashuviga qaratilgan” [4]. Ushbu yondashuv o‘quvchini matn iste’molchisi emas, balki ma’no yaratuvchi shaxs sifatida ko‘radi. Ta’lim jarayonida o‘zgacha fikrlar, yangi tajribalar, mustaqil tahlil va refleksiya jarayoni orqali o‘quvchi o‘z bilim tizimini yangilaydi va boyitadi.

Bu jarayon quyidagi bosqichlar bilan tavsiflanadi:

- mavjud bilim va tajribani qayta ko‘rib chiqish;
- yangi ma’no va qarashlar shakllanishi;
- turli nuqtayi nazarlarni solishtirish;
- shaxsiy pozitsiyani ko‘rsatish.

Prezident maktablari o‘quvchilarining kognitiv salohiyati ushbu metodni amaliy qo‘llashga imkon beradi va sog‘lom bahs-munozaralar orqali ular o‘z salohiyatlarini yanada o‘tkirlaydi.

Debate yondashuvining ilmiy asoslari

“Debat texnologiyasi:

- Vigotskiy (1978) ijtimoiy konstruktivizm [7];
- Dewey (1933) ning reflektiv fikrlash” [3];
- Bloom taksonomiyasining tahlil-sintez-baholash bosqichlariga tayanadi.

Debatlar o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

Ko‘nikma	Tavsifi
Tanqidiy fikrlash	G‘oyalarni tahlil qilish va baholash
Argument qurish	Dalilga asoslangan fikr bildirish
Rebuttal	Qarshi fikrni mantiqan inkor etish
Logos-Ethos-Pathos	Aristotel ritorik modeli asosida nutq qurish
Refleksiya	O‘rganilgan bilimni qayta o‘zlashtirish

Position Paper yozish namunasi

O‘quvchilar debatdan oldin quyidagi strukturada position paper yozishdi:

1. Thesis statement;
2. 3 asosiy dalil;
3. Qarshi pozitsiyani inkor qilish;
4. Xulosa va chaqiriq.

Bu yondashuv o‘quvchilarni akademik yozuvga tayyorlaydi. O‘quvchilar quyidagi mavzularda munozaralar olib borishdi:

- “Technology improves critical thinking” – for/against;
- “Homework should be optional for gifted students”;
- “AI helps language learning more than teachers”;
- “Should students choose reading texts themselves?”.

O'quvchi argumentlaridan namunalar (anonim):

"Muallif fikri shuki, texnologiya imkon yaratadi, lekin uni ongli ishlatish zarur. Matndagi misollar ham shuni ko'rsatadi".

"Men qarshi fikrni tanladim, chunki haddan tashqari texnologiyaga tayanish o'quvchini mustaqil fikrlashdan uzoqlashtiradi".

Karl-Popper bahs-munozara modeli va uning transformative ta'limdagi o'rni

Transformativ ta'lim konsepsiyasi o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchi subyektga aylantirishni maqsad qiladi. Mazkur tadqiqot kontekstida o'quvchilarning kognitiv-analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda Karl Popper bahs-munozara modeli samarali metod sifatida qo'llandi. Ushbu model "tanqidiy fikrlash, dalillash, refleksiya va mantiqiy xulosa chiqarish jarayonlarini faollashtiradi" [5].

Karl Popper modeli uch bosqichdan iborat bo'lib – ochilish nutqlari, qarshi dalillarni tahlil qilish va yakuniy xulosa taqdimoti – bu jarayon o'quvchilarning fikrni tizimli shakllantirishini va dalillarni asoslash madaniyatini kuchaytiradi. Tadqiqot jarayonida mazkur model 8-9-sinf o'quvchilariga ingliz tili darslarida qo'llanilib, matn mazmunini tahlil qilish, muallif pozitsiyasini anglash, ijtimoiy hodisalarni baholash va shaxsiy fikrga egalik qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Shuningdek, Popper modeli Bloom taksonomiyasining yuqori darajalarini – tahlil, baholash va yaratish bosqichlarini keng qamrab oladi. Chunki munozara jarayonida o'quvchilar mavjud faktlarni solishtiradi, xulosalar chiqaradi, yangi g'oyalar yaratadi va qarshi fikrlarni mantiqiy asoslar bilan rad etadi [8].

Prezident maktablari innovatsion ta'lim yondashuviga asoslangan muassasa sifatida o'quvchilarda global kompetensiyalarni shakllantirishni maqsad qilgan. Karl Popper modelining joriy etilishi o'quvchilarda nafaqat til kompetensiyalarini, balki XXI asr ko'nikmalarini – bahs madaniyati, faol tinglash, argumentatsiya, hamkorlik va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi (OECD, 2018). Bu esa o'quvchilarning intellektual tayyorgarligini kuchaytirib, ularni zamonaviy jamiyat va ilmiy muhit talablariga moslashtiradi.

Umuman olganda, Karl Popper munozara modeli transformativ pedagogikaning amaliy ifodasi bo'lib, o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy va kompleks fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatadi.

Natijalar va tahlil

Pilot tadqiqot Termiz shahridagi Prezident maktabi 8-9-sinf o'quvchilari ishtirokida bir chorak davomida olib borildi. Tadqiqotda jami 48 nafar o'quvchi qatnashdi. Dars jarayonida transformativ o'qish yondashuvi va Karl Popper debatmodeli, shuningdek, ochiq savollar va real hayotiy vaziyatlar integratsiyasi qo'llanildi.

Natijalar kognitiv-analitik fikrlashning beshta asosiy ko'nikmasi bo'yicha baholandi:

1. Matn mazmunini tahlil qilish;
2. Muallif maqsadini aniqlash;
3. Dalil keltirish va argument qurish;
4. Xulosa chiqarish;
5. Real hayotiy vaziyatga tatbiq etish.

Matn mazmunini tahlil qilish

Tadqiqot boshlanishida o'quvchilarning matnni tahlil qilish ko'nikmalari 58% darajasida bo'lgan. Debate jarayonlari va position paper yozish orqali o'quvchilar matndagi asosiy g'oyalarni aniqlash, qo'shimcha tafsilotlar bilan mustahkamlash va muallif fikrini baholash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Chorak oxirida o'quvchilarning o'rta ko'nikma darajasi 84% ga yetdi. Bu ko'rsatkich matn tahlili bo'yicha 26% o'sishni ko'rsatadi.

Muallif maqsadini aniqlash

O'quvchilarning muallif niyatini tushunish darajasi dastlab 52% bo'lgan. Debate va argumentatsion mashg'ulotlar o'quvchilarga matndagi asosiy fikrlarni, muallif nuqtayi nazarini

va qarshi fikrlarni tahlil qilish imkonini berdi. Natijada, chorak oxirida ko‘rsatkich 81% ga ko‘tarildi.

Dalil keltirish va argument qurish

Bahs-munozara va position paper yozish jarayonida o‘quvchilar 49% darajada dalil keltirish va argument qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan. Debate jarayonlari o‘quvchilarga mantiqiy va dalillarga asoslangan fikr bildirish, qarshi fikrlarni rad etish, shuningdek, fikrlarini asoslab bayon etish imkonini berdi. Chorak oxirida bu ko‘rsatkich 79% ga yetdi.

Xulosa chiqarish

Tahliliy va reflektiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar xulosalar chiqarish bo‘yicha 55% darajadan 85% darajaga ko‘tarildi. Bu jarayonda o‘quvchilar matndagi fakt va fikrlarni solishtirib, mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Real hayotiy vaziyatga tatbiq etish

STEM integratsiyasi va hayotiy muammoli vaziyatlar o‘quvchilarga bilimni real hayotga tatbiq etishni o‘rgatdi. Boshlanish darajasi 61% bo‘lsa, chorak oxirida bu ko‘rsatkich 88% ga yetdi.

Natijalar tahlili

• Transformativ o‘qish + debate yondashuvi o‘quvchilarda kognitiv va analitik fikrlashni sezilarli darajada rivojlantirdi.

• Ochiq savollar va argument asoslangan mashg‘ulotlar refleksiya va mustaqil xulosa chiqarishni kuchaytirdi.

• Karl Popper debate modeli fakt va fikrni ajratish, qarshi pozitsiyani mantiqan inkor etish qobiliyatini oshirdi.

• Real hayotiy misollar va STEM integratsiyasi bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish ko‘nikmalarini kuchaytirdi.

• Natijalar shuni ko‘rsatadiki, transformativ o‘qish Prezident maktablari o‘quvchilarida yagona akademik va global kompetensiyalarni uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi.

Manbalar bilan ilmiy tahlil

Tadqiqot natijalari ilgari o‘tkazilgan o‘xshash izlanishlar bilan mos keladi. Masalan, Moon (2014)da ta’kidlaganidek, debate metodologiyasi o‘quvchilarda analitik fikrlash va mantiqiy xulosalar chiqarishni sezilarli darajada rivojlantiradi. Shuningdek, OECD (2018) [6] tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, real hayotiy misollar integratsiyasi va argument asosida o‘qitish global kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot Termiz shahridagi Prezident maktabi 8-9-sinf o‘quvchilari misolida transformativ o‘qish yondashuvi va Karl Popper munozara modeli asosida olib borildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. Transformativ o‘qish + debate metodologiyasi o‘quvchilarda kognitiv va analitik fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi.

2. Ochiq savollar va position paper yozish jarayoni o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish, xulosa chiqarish va dalil keltirish malakalarini oshirdi.

3. Real hayotiy vaziyatlarga integratsiya qilingan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning bilimni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini kuchaytirdi.

4. Karl Popper debate modeli o‘quvchilarda argumentatsiya madaniyati, qarshi fikrni mantiqan inkor etish va konstruktiv muhokama qilish qobiliyatini shakllantirdi.

Shunday qilib, tadqiqot Prezident maktablari o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash va global kompetensiyalarini rivojlantirishda transformativ o‘qishning samaradorligini tasdiqladi. Bu metodika nafaqat ingliz tili fanida, balki boshqa akademik fanlar va loyihaviy faoliyatda ham qo‘llanilishi mumkin.

Amaliy tavsiyalar:

Dars jarayonida Karl Popper debate modelini muntazam qo‘llash o‘quvchilarni mavzuni

tahlil qilish, dalillarni asoslash va qarshi fikrlarni rad etish jarayoniga jalb qiladi.

Open-ended questioning va reflektiv mashg'ulotlarni integratsiya qilish o'quvchilarga matnni chuqur o'qish, fikrlarini izchil bayon etish va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Real-life case study va STEM integratsiyasi o'quvchilarning bilimlarini amaliyotga tatbiq etish va ijtimoiy muammolarni hal qilishga o'rganishiga yordam beradi.

Position paper va yozma tahlil mashg'ulotlarini kiritish akademik yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi.

Bahs-munozara jarayonini baholash mezonlarini aniqlash o'quvchilarning argument, rebuttal va xulosa chiqarish qobiliyatlarini tizimli baholash imkonini beradi.

O'qituvchilarni malaka oshirish va metodik qo'llanmalar yaratish transformativ o'qish va debate metodini samarali qo'llashni o'rgatadi.

Ushbu tavsiyalar Prezident maktablari va boshqa maktablarda o'quvchilarning global kompetensiyalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha strategik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Agency of Presidential Schools. *Annual report on Presidential Schools in Uzbekistan.* – Tashkent: Ministry of Public Education, 2023.

2. Cambridge Assessment International Education. *Curriculum framework and assessment guidelines.* Cambridge: Cambridge University Press, 2021.

3. Dewey J. *How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process.* Boston: D.C. Heath,1933.

4. Mezirow J. *Transformative dimensions of adult learning.* San Francisco: Jossey-Bass, 1991.

5. Moon J. *A handbook of reflective and experiential learning: Theory and practice.* London: Routledge, 2014.

6. OECD. *The future of education and skills 2030: OECD learning compass 2030.* Paris: OECD Publishing, 2018.

7. Vygotsky L.S. *Mind in society: The development of higher psychological processes.* Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

8. Anderson L.W., Krathwohl D.R. *A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives.* New York: Longman, 2001.